

37
K-13

X.A. KADIROVA

SHAROF RASHIDOV

O'ZBEKISTONNING MAKTAB
MAO'RI TARAQQIYOTIDA
TUTGAN O'RNI



Kitob shu yerda ko'rsatilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

Ilgarigi berilmalar miqdori _____

mi

Tipografiya "Zabo Printa" MCHJ tel. +998 94 673 66 56
+998 97 017 01 01

37

K-13

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

KADIROVA XURSHIDA ABDIXALILOVNA

**SHAROF RASHIDOV O'ZBEKISTONNING
MAKTAB MAO'RIFI TARAQQIYOTIDA
TUTGAN O'RNI**

MONOGRAFIYA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

«Book trade 2022»

Toshkent-2023

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

UO'K 37.091.3
KBK 74.5
K-13

Kadirova X.A. Sharof Rashidov O'zbekistonning maktab mao'rifi taraqqiyotida tutgan o'rni. (Monografiya). -T.: – 100 b.

Masul muxarir:

Usarov Jabbor Eshbekovich-pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna – Chirchiq davlat pedagogika Universiteti v.b.professori, pedagogika fanlari doktori;

Parpiyeva Malika Mo'minovna – “Amaliy fanlar universiteti” dotsenti, (PhD)

*Monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy texnik kengashitomonidan nashrga tavsiya etilgan
(7-son bayonnoma, 2024 yil 12 dekabr)*

ISBN 978-9910-780-26-4

KIRISH

Jahon ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida inson kapitali jamiyatni taraqqiy ettiruvchi eng muhim omil ekanligi tobora ayon bo'lib bormoqda. YUksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish muammolari bo'yicha butunjahon Forumida qabul qilingan Incheon deklaratsiyasida (Incheon Declaration/ Education 2030; 19-22 may, 2015, Incheon, Republic of Korea) "...barcha uchun butun hayoti davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish..."¹ ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan dunyoqarashini rivojlantirish, jamoaviy va qadriyatga yo'naltirilgan integratsion tizimning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirishga e'tibor qaratilgan. O'qituvchilar tayyorlashning xalqaro akkreditatsiyalangan dasturi (Internationally accredited teacher training programs – IATTP, Canada; India)ga ko'ra xalqaro andozalar asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda zamonaviy o'qitish texnologiyalari bilan uzviylikda o'qituvchi shaxsi tarbiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblangan milliy dunyoqarashni rivojlantirish va uni pedagogik nuqtai nazardan tadqiq qilish hamda uni yangi sifat bosqichiga olib chiqish dolzarb ahamiyatga ega.

Dunyoning bir qator yetakchi davlatlari va ilmiy markazlarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanganlik va ma'naviyatlilik darajasini oshirish, pedagogik kompetensiyasini shakllantirish,

¹Incheon Declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all [Word Education Forum, 19-22 may, 2015, Incheon, Republic of Korea].

globalashuv jarayonlarining salbiy ta'sirlariga qarshi ularda ma'naviy immunitetni qaror toptirish orqali ta'lim oluvchi yoshlarning dunyoqarashini milliy manfaatlarga yo'naltirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning milliy dunyoqarashini rivojlantirish bo'yicha ilmiy pedagogik izlanishlarning istiqbolli yo'nalishlari pedagogik jarayonlarni amalga oshirishning strategik maqsadlarini to'g'ri belgilash va ularni amalga oshirish masalalariga ilmiy yondashuvni qaror toptirishni taqozo qiladi.

Bugungi kunda respublikamizda bo'lajak kadrlar, ayniqsa, pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorgarlik sifatini oshirish bo'yicha keng islohotlar olib borilishi natijasida o'qituvchilar tayyorlashning o'ziga xos tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, u muntazam ravishda maqsadli amalga oshiriladigan va rivojlantiriladigan pedagogik jarayonning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da tizim oldiga "... kasbiy o'sishni mustaqil rejalashtirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish"² vazifasi qo'yilgan bo'lib, bu jarayonda oliy pedagogik ta'limda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish asoslarini

ishlab chiqish va nazariy-metodik tavsiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlash to'g'risida", 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari; 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020 yil 15 maydagi PQ-287-sonli "O'zbekiston Respublikasi kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi

²Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги «Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-5712-сон Фармони. ҚХММБ: 06/19/5712/3034-сон, 29.04.2019 й.

I-BOB. SHAROF RASHIDOV O'ZBEKISTONNING MAKTAB MAO'RIFI TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI.

1.1-§ SHAROF RASHIDOV HAYOTI VA IJODI

Prezidentimizning 2017-yil 27-martdagi "Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarorida Jizzax shahrida adibning memorial muzeyini tashkil etish va muzey hududini obodonlashtirish bo'yicha vazifalar belgilangan edi. Davlatimiz rahbari Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligi oldidan qayta qurib bitkazilgan mazkur muzeyda bo'lib, bu yerdagi ekspozitsiyalar va yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Qurilish-ta'mirlash ishlari doirasida muzey binosi kengaytirildi, atoqli davlat arbobi va yozuvchining hayot yo'li va ijodiga daxldor 2 ming 700 dan ortiq eksponat bilan ta'minlandi. Muzeyga kiraverishda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning «Hech shubha yo'qki, Sharof Rashidov nomini o'zbek xalqining tarixidan, hayotidan ayri tasavvur qilib bo'lmaydi. Sharof Rashidov o'z xalqiga va Vataniga fidoyi farzand edi», degan so'zlari bitilgan. Binoning ichki va tashqi qismi milliy me'morchiligimiz an'analari asosida bezatilib, anjumanlar zalida Sharof Rashidov faoliyatiga doir filmlarni namoyish etish imkoniyati yaratildi. Muzey yoniga Sharof Rashidov davlat xizmati chog'ida foydalangan poyezd vagoni o'rnatildi. Undagi sharoit va buyumlar asl holicha saqlangan.

Muzeyda namoyish etilayotgan eksponatlar Sharof Rashidovning bolalik davri, talabalik yillari, muharrirlik davri, O'zbekistonda cho'l va qo'riq yerlarni o'zlashtirish, qurilish jarayonidagi faol ishtiroki, ijtimoiy-siyosiy va adabiy faoliyati hamda boshqa mavzularga bag'ishlangan o'nta bo'limga ajratilgan.

Bo'limlarda atoqli davlat arbobining fotosuratlari, dastxatlari tushirilgan kitoblar, yorqin xotirasiga oid turli buyumlar va boshqa ko'plab eksponatlar namoyish etilmoqda. Muzey Sharof Rashidov haqida to'liq ma'lumot beradigan, u kishining ruhlarini sezadigan joy bo'lishi kerak, dedi davlatimiz rahbari. Bu yerga o'quvchi-yoshlarning muntazam tashrifini yo'lga qo'yib, turli tadbirlar o'tkazish zarur. Davlatimiz rahbari 2016-yil 18-noyabr kuni Jizzax viloyati saylovchilari vakillari bilan uchrashar ekan, 2017-yil xalqimizning otashqalb farzandi, atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludiga 100 yil to'lishini qayd etib, ushbu qutlug' sanani butun mamlakatimiz miqyosida keng nishonlash, turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish, u kishi tug'ilib voyaga yetgan Jizzax zaminida muhtasham yodgorlik majmuasi barpo etish taklifini o'rtaga tashlagan edi. O'tgan qisqa vaqtda mamlakatimizning barcha hududlarida Sharof Rashidovning hayoti, mehnat faoliyati va ijodiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, anjumanlar uyushtirilmoqda, kitoblar chop etildi.

Shavkat Mirziyoyev Sharof Rashidov memorial muzeyi faxriy mehmonlar kitobiga o'z fikr va taassurotlarini yozib qoldirdi. Unda shunday so'zlar bor: «Xalqimizning buyuk farzandi, atoqli davlat